

LINGVOKULTUROLOGIYANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Pazeledinova Sayyora Tursinboy qizi

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti III bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya va zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining o'zaro bog'liqliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: til, sistema, lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika, madaniyatshunoslik.

Bugungi kunda tadqiqotchilar matn tahlilida semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqda. Bundan maqsad: nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, boshqa tomondan, matnning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir.

Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda milliy madaniyat aks etishi va mustahkam o'rinish olishini tadqiq etuvchi sohalar to'qnashgan o'rinda paydo bo'lgan. Fanning predmeti o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat sanaladi. V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'grisidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir¹. G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi².

V.N. Teliya lingvokulturologiya obyektini umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlagan bo'lsa, V. A. Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozimligini uqtiradi³.

Lingvokulturologiya *lingvistika*, *madaniyatshunoslik*, *etnopsixolingvistika*, *lingvomamlakatshunoslik*, *etnolingvistika*, *sotsiolingvistika* fanlari bilan o'zaro bog'langan. Ayniqsa, etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan shu qadar chambarchas bog'langanki, B.N.Teliya uni etnolingvistikaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi. Biroq ular prinsipial jihatdan umuman boshqa- boshqa fanlardir.

Etnolingvistika tarmog'iga to'xtalganda, eslab o'tish joizki, uning ildizlari Yevropada V. Gumboldtga; Amerika tilshunosligida esa F.Boas, E.Sepir, B.Uorfga borib taqaladi; Rossiyada esa D.K.Zelenin, E.F.Karskoy, A.A.Shahmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasyev, A.I.Sobolevskoylar tadqiqotlarida alohida mavqega ega bo'ldi. Zamonaviy etnolingvistikaning markazida tilning moddiy, madaniy va tarixiy majmualar, ya'ni madaniyatning shakllari, an'ana, urf-odatlar bilan o'zaro munosabatdagi elementlar mavjud. Etnolingvistikaning maqsadi dunyodagi xalqlarning folklor namunalari o'rganishdir.

Sotsiolingvistika – bu fan tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy sharoitlar, ya'ni til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi. Tildan foydalanayotgan jamiyat kishilarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyati, yashash joyidagi farqlar va ularning muloqot vaziyatiga bog'liq nutqiy muomalasidagi farqlar o'rganiladi.

Shu tariqa, etnolingvistika va sotsiolingvistika turlicha fanlardir. Etnolingvistika tarixiy jihatdan ahamiyatga molik ma'lumotlarga tayanib, zamonaviy materiallarda biror xalqqa oid tarixiy faktlarni aniqlashga intilsa,

1 Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

2 Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

3 Пименова М.В., Кондратьева О. Н. Концептуальные исследования. Введение: учебное пособие. – М.: Флинта, 2011.

sotsiolingvistika bugungi kun materiallarini o'rganadi. Lingvokulturologiya esa tarixiy va zamonaviy til faktlarini ma'naviy madaniyat ko'zgusi ortidan tekshiradi.

Etnopsixolingvistika muayyan an'anaga oid bo'lgan xulq-atvorning nutq faoliyatida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Turli til egalarining verbal va noverbal fe'l-atvoridagi farqlarni tahlilga tortadi, nutq odobi va "dunyoning rangli manzarasi"ni, madaniyatlararo aloqalarda matn lakunalarini tadqiq etadi, ikki tillilik va ko'p tillilikni turli xalqlar nutq odobining o'ziga xos tomoni sifatida talqin qiladi. Etnopsixolingvistikaning asosiy tadqiqot metodi assotsiativ tajriba bo'lsa, lingvokulturologiya tilshunoslikdagi barcha metodlarni qo'llay olishi bilan ajralib turadi.

Madaniyatshunoslik (kulturologiya) fani madaniyat hodisasini odamlarning tarixiy va ijtimoiy tajribasi sifatida o'rganuvchi soha. U o'ziga xos normalar, qonunlar va ular faoliyatining xususiyatlarida mujassamlashgan, avloddan avlodga qadriyat yo'nalishlari va ideallari shaklida o'tkaziladi. Madaniyatshunoslik til birliklarining madaniy ahamiyatga ega bo'lgan jihatiga, xalqning madaniy dunyosiga til prizmasi orqali nigoh tashlashga, til madaniyatni ro'yobga chiqaruvchi vosita ekanligiga asosiy e'tibor qaratadi.

Til va madaniyatning o'zaro ta'siri kognitiv tilshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar ham lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi⁴. Demak, lingvokulturologiya tilshunoslik ilmiga xos bo'lgan qator yangi sohalardan hisoblangan kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, matnni o'rganishdagi antroposentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvoo'lkashunoslik, etnolingvistika sohalariga oid masalalarni tahlil qilish yo'nalishidagi tadqiqot ishlari bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пименова М.В., Кондратьева О. Н. Концептуальные исследования. Введение: учебное пособие. – М.: Флинта, 2011.
2. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 524 с.
3. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – 128 с.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 226 с.

⁴ Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. -С. 9-10.